


O'zbek akademigining kitobi Londonda nashr etildi

G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali rektori, O'zR FA akademigi Qalandar Abdurahmonovning "Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot" darsligi Londondagi "Scientific Publishing House IVG" nashriyotida "Labour Economics. Theory and Practice" nomi bilan ingliz tilida chop etildi.





Scientific Publishing House IVG

Eslatib o'tamiz, ushbu kitob 2019-yilda o'zbek tilida chop etilgan va ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgan.

ҚАЛАНДАР АБДУРАҲМОНОВ

**МЕҲНАТ
ИҚТИСОДИЁТИ**
НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ

ДАРСЛИК



Bundan tashqari, ushbu kitob Moskvada rus tilida ham nashr etilgan bo'lib, so'z boshida muallif ushbu kitob "bu fanning so'nggi yutuqlarini qamrab olgan fundamental asar. Ushbu darslikning yaratilishi global miqyosdagi innovatsion o'zgarishlarga to'liq javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash yo'lidagi sifat jihatidan yangi qadamdir. Ushbu darslik nafaqat universitet talabalari va iqtisodchilar uchun, balki MDH mamlakatlaridagi keng kitobxonlar uchun ham qimmatli va foydali o'quv adabiyotiga aylanadi " deb ta'kidlagan.

К.Х. АБДУРАХМАНОВ

ЭКОНОМИКА ТРУДА

Теория и практика

Учебник

Shuningdek, bu kitobning rus, qozoq, tojik tillarida Tojikiston, Qizg'iziston, Qozog'istonda ham nashr etilganligi ushbu davlatlar ilmiy jamoatchiligi bilan fan va ta'lim yutuqlari bo'yicha o'zaro fikr almashish, ilmiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.

